

LUG'ATLARDA KELTIRILGAN RANG NOMLARINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Karimova Munira

TerDU 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Iroda Xidirova

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy tildagi lug'atlarda keltirilgan ranglarning nomlanishi, bir-biriga o'xshash va farqli jihatlari leksik-semantik tahlil asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: turkiy lug'atlar, rang nomlari, leksik farq, leksik-semantik tahlil, "Devonu lug'otit turk", "Muhokamat ul-lug'atayn", turkiy til.

Qadimgi lug'atlar muayyan xalq ma'naviyati va milliy madaniyatida muhim o'rin egallaydi. Ularda jamiyatning ma'lum davrida erishgan bilimlari aks etadi. Har qanday milliy tilning asosiy so'z boyligini va shu tilning tarixan rivojlanishini ta'minlashda qadimgi lug'atlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Turkiy tillar lug'atshunosligi boy va ko'plab tajribaga ega hisoblanadi. Ayniqsa, o'tmish lug'atshunoslari o'ziga xos lug'at tuzish usullari, tamoyillari, so'zlarni sharhlash uslublari jihatidan ajralib turadi. Ushbu lug'atlarda so'z tanlash mezonlari, so'zning semantik tarkibiga munosabat bildirish, so'zning ma'no qirralarini ochish kabilar hozirgi zamon lug'atshunoslari uchun muhim ahamiyatga egadir.

Qadimgi turkiy lug'atlardan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" (Ushbu lug'atda XI asrning 2-yarmida Markaziy Osiyo va G'arbiy Xitoy hududida yashovchi turkiy urug' va qabilalarning tili, tarixi, geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar keltirilgan), "Attuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya" (keyingi o'rinlarda "At-tuhfat"), Yoqub Chingiyning "Kelurnoma" hamda Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" kabi asarlarda ranglar va ularning qanday nomlanganligi keltirib o'tilgan. Bu lug'atlardan tashqari qadimda ranglarning nomlanishi ham o'zgachalikni kasb etgan. Ranglarning qadimgi nomlarida darajalanishni kuzatish mumkin, ya'ni bir rangning och va to'q darajasigacha turlichalik nomlangan. Masalan: kók rang – zangori, to'q kók rang esa lojuvard tarzida nomlangan. Sariq rangning ózi ham darajalanishiga qarab to'rt xil nomda keladi: sariq — siymob — zarg'aldoq — lolaróy kabi. Qadimgi turkiy lug'atlarda esa bu holat uncha kuzatilmaydi, ya'ni darajalanish deyarli kam.

Ushbu lug'atlardagi so'zliklarni tahlil qilish jarayonida ranglarning nomlanishida bir qancha farqli jihatlari yuzaga chiqdi. Masalan: to'q qizil ya'ni arg'uvon rang "Devonu lug'otit turk"ning 1-jildida opat (80) shaklida keltirilgan bo'lsa, xuddi shu lug'atning 2-jildida jipkin (44), jipkil – arg'uvon rang (54), bajin –

to‘q qizil (27) tarzida bir necha xil ko‘rinishda nomlangan. Bulardan tashqari qizil rangni “Devonu lug‘otit turk”da қўзил жўвўт (177), “At-tuhfat”da қўзил (11), “Kelurnoma” lug‘atida esa қызыл (92) shaklida ifodalangan. XIV asrga kelib esa ya’ni “Muhokamat ul-lug‘atayn”da хумрат – qizillik (54) ko‘rinishida uchradi. Sariq rang “Devonu lug‘otit turk”ning o‘zida ham bir necha xil ko‘rinishda keltirilgan. “Devonu lug‘otit turk”ning 1-jildida а:л – to‘q sariq ya’ni apelsin rang, сапїр – sariq, o‘ta ketgan sariq (355) tarzida keltirib o‘tilgan. 2-jildida esa сапїр жўвўт – zirnix (377) rang sifatida uchraydi. “At-tuhfat”da сапї (11), “Kelurnoma” lug‘atida esa сапыг (100) shaklida keltirilgan. Bularda ko‘proq fonetik jihatdan farqlar seziladi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida esa ushbu lug‘atlardan umuman farqli ravishda sariq rang асфар (30) kabi ifodalangan. Qora rang ham biz ko‘rib o‘tgan “At-tuhfat”da қапа (11), “Kelurnoma”da ham xuddi shu ko‘rinishda қапа (90) ifodalangan bo‘lsa, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida савод (45) shaklida uchrab leksik farq kuzatiladi. Yana boshqa so‘zliklarga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Devonu lug‘otit turk”da oq rang а:қ (109), “At-tuhfat” lug‘atida ham xuddi shu tarzda ақ (136) shaklida ko‘rsatilgan bo‘lsa, “Muhokamat ul-lug‘atayn”da баёз (31) so‘zligi orqali ifodalangan. Ko‘rinadiki, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida keltirilgan rang nomlari boshqa lug‘atlardan leksik jihatdan butunlay farqlanadi. Ko‘k rang “Devonu lug‘otit turk”ning 1-jildida көкшїн (410) – osmon rang deya keltiriladi. Xuddi shu lug‘atning 2-jildida esa көк (146), көк жўвўт (177) – to‘q ko‘k deya ta’riflanadi. “Kelurnoma”da көк – синий (95), “At-tuhfat” lug‘atida көк (200), көк (220) shakllarida, bundan tashqari moviy rang deya keltirilgan асманї (171) shakli ham uchrashini ko‘rish mumkin. Hozirgi kunda deyarli muqobili yo‘q va kam ishlatiladigan ranglardan biri ola rang ham ushbu lug‘atlarda deyarli bir xil ko‘rinishda uchraydi. Masalan: “At-tuhfat”da ала (167), “Kelurnoma” asarida ham ала (77) shakli duch keldi.

Yuqorida nomlari keltirilgan lug‘atlarda kamdan kam uchragan va ba’zi lug‘atlarda uchramagan rang nomlari ham mavjud. “Devonu lug‘otit turk”ning 1-jildida а:р нэң – qo‘ng‘ir rang (108) keltirib o‘tilgan. Ushbu lug‘atning 2-jildida esa боз – kulrang (134), мэніз – odam rangi tarzida ham uchratildi. “At-tuhfat”da ham boshqa lug‘atlarda keltirilmagan xira qora rang – қапа жупуз (12) deya nomlangan. Bu lug‘atlarda ranglarning qanday atalishi va nomlanishidan tashqari rang so‘zining o‘zi ham turli xil so‘zliklar orqali atalgan. “Devonu lug‘otit turk”da rang өн (76), 2-jildida esa тў (224), “At-tuhfat”da тўпў – rang (105) va шїпaj – rang (276) so‘zliklar orqali ifodalangan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, qadimgi lug‘atlar jamiyat til taraqqiyotining ortib borishida, tarixiy taraqqiyotning yuksalishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, millat madaniyati va urf-odatlarini xalq ongida doimo singdirilib borishida tayanch vazifalarini o‘taydi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Yuqorida tahlilga tortilgan bir nechta lug‘atlarda keltirilgan rang nomlari bir-biridan

ham fonetik, ham leksik-semantik jihatdan farqlari kuzatildi. Bu, albatta, davrlashtirish jarayoni bilan ham bog‘liq hodisa deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg‘ariy. Turkiy so‘zlar devoni (Devonu lug‘otit turk). – Toshkent: Fanlar Akademiyasi, 1963.
2. Attuhfatuz zakiyatu fillug‘atit turkiya [Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa]. – Toshkent: Fan, 1968.
3. Muhammad Ya‘qub Chingiy. Kelurnoma (Kelur-name). Tashkent: Fan, 1982.
4. Alisher Navoiy. Muhokamat ul -lug‘atayn.